Eshitishda nuqsoni bor bo'lgan o'quvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish samaradorligi	1839
Boymirzayeva Madina Ilhomjon qizi	
Elektrodinamika bo'limini o'qitishda zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarning ilmiy-metodik tahlili	1842
Abdullayev Botirxon Ismoilovich	
Bolalar adabiyoti ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish masalasida tushunchalar tahlili pedagogik muammo sifatida	1846
Abdullayeva Moxidilxon Dilshodbek qizi	
Biologiya ta'limida konseptual modelni qo'llash va uning samaradorligini baholash	1850
Abdurasulova Gulruh Xabibullaevna	
Dizatriyal bolalarning ovoz va nafasni rivojlanganlik holatini eksperimental o'rganish natijalari	1854
Abidova Nilufar Zakirovna, Shaxodjayeva Nilufar Raimjonovna	
Kasbiy etika va deontologiya: bo'lajak shifokorlar tarbiyasida innovatsion yondashuvlar	1857
Ahmedova Nigora Dadahonovna	
Tabiiy fanlar va matematika integratsiyasi orqali ekologik mas'uliyatni shakllantirish metodikasi	1862
Ashurova Gulhayo Nurali qizi, Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi	
Inklyuziv ta'lim tizimida imkoniyat cheklangan o'quvchilarni o'qitishga lingvopedagogik yondashuv	1865
Asranbayeva Munojot	
Chet tili mashg'ulotlarida yozma nutqni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	1868
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	



Ekologik muhit asosida bolalar psixo-fiziologik rivojlanish jarayonini takomillashtirish.....	1872
Axmedjonova Nozigul Zaripovna	
O'smir yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish	1876
Baxrillayeva Moxichexra Raxmatillayevna	
Xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlari	1880
Bayzakova Malika	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	1884
Berdiyeva Muborak Baxtiyorovna, Saydinova Barno	
O'yin texnologiyalari asosida matematik bilimlarni takomillashtirish va uning ahamiyati.....	1889
Botirova M. B.	
Talabalar orasida ko'p uchraydigan akademik muvaffaqiyatdan qo'rqish va uning yechimlari.....	1892
Celal Al'gan	
Kasbiy faoliyat xavfsizligiga tayyorgarlik izlanishlari.....	1896
D. G'. Akramova	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish	1899
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li	
Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'siri talqini	1905
Dostanova Kamola Alisher qizi	
Dual ta'lim jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar	1909
Egamberdiyeva Yulduz Urinboevna	
The Sociolinguistic Effectiveness of Using Authentic Texts in the Training of Prospective English Language Teachers	1912
Elyor A Pazilov	
Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari	1916
Ermatova Gullola Ziyod qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik-madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda kognitiv texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	1919
Eshmo'minova Sitara Xayrullo qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyatini shakllantirishda tizimli-vaziyatli yondashuvning nazariy asoslari	1922
Gapparova Zilola Neymat qizi	
Raqamli ta'lim muhitida kreativ tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	1926
Hayitboyeva Zarina Otanazarovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarni tushuntirishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish usullari.....	1930
Hojimamatova Jamila, Ahmedova Umidaxon Yodgorjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish	1933
Inobatxon Toshpo'latova	
4-sinf o'qish savodxonligi darsligidagi "Qarg'a va paxta" hikoyasi orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda savol va topshiriqlarning o'rni	1937
Jo'liboyeva Mahliyo Hamro qizi, Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi	
Mantiqiy tafakkur tushunchasi mohiyati.....	1941
Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich	
Developing Tolerance Skills in Future Teachers During their Professional Training.....	1945
Joldasbaeva Arzigul Muratbaevna	
O'quvchilarda aksiologik yondashuvlar asosida empatik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	1948
Jumanov Erdavlet Sharifjon o'g'li	
Yo'l harakati xavfsizligi va uni maktabgacha ta'limda o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-metodologik asoslari	1952
Jumayev Yunus Rashidovich	
Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar.....	1959
Sayfullayev G'ulom Maxmudovich, Jurayeva Iroda Botirovna	
An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	1964
Karimov Ilhom Normamatovich	
Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
Karimov Ravshanbek Rizomatovich	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati.....	1973
Kayumova Dilnoza Patxulla qizi	

Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi.....	1978
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili.....	1982
Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi	
Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlarini.....	1986
Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati.....	1990
Murodova Farangis G'anisherovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari	1994
Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli	1997
Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li	
Ingliz tilini o'rgatishda interrogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi	2003
Normamatova Dilfuza Turdikulovna	
Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati	2008
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish.....	2011
Romanova Lola Karimbayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish.....	2014
Rustamova Gulmira Yoryigit qizi	
Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynovord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari	2018
Sadinov Oybek Ziyot o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	2021
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish	2024
Shermuxevedova Dilnozaxon Raximjanovna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	2028
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi.....	2031
Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi	2034
Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich	
Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish	2039
Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi	
Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish	2043
Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi	
Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi	2046
Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna	
Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash	2050
Umarov Abdurasul Abduraximovich	
Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	2058
Umarov Xusanboy Rustamovich	
Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences.....	2062
Usmanova Nargiza Kudratullayevna	
Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlarini (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil)	2065
Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich	
Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari	2069
Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li	
Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli ...	2073
Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li	
Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	2080
Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna	



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoiri Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yuldasheva Dilshoda To'liqinova	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari	2102
Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish	2106
Yunusova Feruzaxon Xodjakbarovna	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasidagi ahamiyati	2109
Yunusova Xolidaxon To'liqinjon qizi	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari	2113
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	2116
Badalova Maqsuda Umarovna	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
Mirzanov Sherzod Sirliboyevich	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста	2123
Назарова Эльвира Наримановна	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей	2127
Шафига Тахирова	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения	2131
Эшанкулов Хамракул Маматкулович	



KASBIY ETIKA VA DEONTOLOGIYA: BO'LAJAK SHIFOKORLAR TARBIYASIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Ahmedova Nigora Dadahonovna
Andijon davlat tibbiyot instituti, PhD. dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak shifokorlarda kasbiy-ma'naviy fazilatlarni rivojlantirish jarayonining deontologik, falsafiy-pedagogik va etik asoslari tahlil qilindi. Gippokrat qasamyodi, Paracelsus modeli, "ziyon qilma" tamoyili hamda shifokor shaxsiga qo'yiladigan axloqiy talablarning zamonaviy talqini keng yoritildi. Tadqiqot bo'lajak shifokorlarning ma'naviy motivatsiyasi, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati, empatiya darajasi va kasbiy madaniyatining shakllanish omillarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy ma'naviyat; tibbiy deontologiya; tibbiy etika; shifokor shaxsi; Gippokrat qasamyodi; Paracelsus modeli; "ziyon qilma" tamoyili; axloqiy qaror; empatiya; ma'naviy motivatsiya; kasbiy madaniyat; shifokor etikasi.

Abstract: This article analyzes the deontological, philosophical–pedagogical and ethical foundations of developing professional–moral qualities in future physicians. It presents modern interpretations of the Hippocratic Oath, the Paracelsus model, the “do no harm” principle, and the ethical requirements imposed on the physician’s professional identity. The study aims to identify the factors influencing spiritual motivation, ethical decision-making ability, empathy, and the formation of professional culture among future medical practitioners.

Key words: professional morality; medical deontology; medical ethics; physician identity; Hippocratic Oath; Paracelsus model; “do no harm” principle; ethical decision-making; empathy; spiritual motivation; professional culture; medical professionalism.

Аннотация: В статье проанализированы деонтологические, философско-педагогические и этические основы формирования профессионально-нравственных качеств будущих врачей. Освещены современные интерпретации Клятвы Гиппократ, модели Парацельса, принципа “не навреди”, а также этических требований, предъявляемых к личности врача. Исследование направлено на выявление факторов, влияющих на развитие моральной мотивации, способности к этическому принятию решений, эмпатии и профессиональной культуры будущих врачей.

Ключевые слова: профессиональная нравственность; медицинская деонтология; медицинская этика; личность врача; Клятва Гиппократ; модель Парацельса; принцип “не навреди”; этическое решение; эмпатия; моральная мотивация; профессиональная культура; врачебная этика.

KIRISH

Shifokorlik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra insonparvarlik tamoyillariga asoslangan bo'lib, inson hayotini asrash, azob-uqubatni kamaytirish va bemorga mehr-oqibat bilan yondashish uning eng muhim vazifasidir. Tibbiy kasbning bunday yuksak missiyasi uni boshqa barcha kasblardan ajratib turadi. Shu bois qadimdan shifokorlik jamiyatda e'zozlangan, unga nisbatan alohida axloqiy talablar qo'yilgan. Tadqiqotimizda ta'kidlanganidek, shifokorning kasbiy faoliyati har qanday sharoitda “ziyon qilma”, “yaxshilik qil”, “axloqiy burchni bajarish”, “adolatli bo'lish”, “halollikni saqlash” kabi universal etik tamoyillarga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Ana shu tamoyillar tibbiy deontologiyani poydevorini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gippokrat tomonidan miloddan avvalgi asrlarda shakllantirilgan Gippokrat qasamyodi, “Shifokor to'g'risida”, “Yaxshi xulq-atvor to'g'risida” kabi asarlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan fundamental etik manbalardir. U shifokordan, avvalo, bemorning manfaatini ustuvor qo'yishni, sog'lig'iga zarar yetkazmaslikni, tibbiy sirni saqlashni va kasbiy faoliyatda halollik, poklik, kamtarlik kabi fazilatlarni saqlab qolishni talab qiladi.



Tadqiqotimizda ta'kidlanganidek, “ziyon qilma” (primum non nocere) tamoyili nafaqat qadimgi tibbiyotning, balki zamonaviy bioetikaga asos solgan eng qadimiy va eng universal axloqiy mezondir.

Paracelsus tomonidan rivojlantirilgan model esa shifokor faoliyatida nafaqat bilim va mahorat, balki ruhiy-ma'naviy aloqa, mehr va bemor qalbini tushunish kabi fazilatlarining ham zarurligini ta'kidlaydi. Paracelsus fikriga ko'ra, shifokorning kuchi – faqat bilimi emas, balki uning qalbidagi insonparvarlik, shafqat va mehrdadir. Tadqiqotimizda bu modelning o'ziga xos jihatlari yoritilib, shifokor va bemor o'rtasidagi ishonchning kasbiy-ma'naviy vazifalar bajarilishida hal qiluvchi omil ekanligi qayd etilgan.

Zamonaviy tibbiyot ham ushbu qadimiy tamoyillarni davom ettirib, shifokor faoliyatini to'rt asosiy bioetik prinsip orqali tartibga soladi:

1. Zarar qilmaslik (non-malefitsiya);
2. Yaxshilik qilish (benefitsiya);
3. Adolat;
4. Shaxsiy avtonomiyani hurmat qilish.

Bu tamoyillar bo'lajak shifokorlar kasbiy-ma'naviy fazilatlarini shakllantirish jarayonida asosiy nazariy va amaliy yo'nalish sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotimizda qayd etilganidek, shifokorning kasbiy-ma'naviy fazilatlarini – bu faqat tashqi xulq me'yorlari emas, balki ichki e'tiqod, axloqiy ong, ma'naviy motivatsiya, empatiya, rahm-shafqat, adolat, vijdonlilik, javobgarlik kabi murakkab ruhiy-pedagogik tuzilmalardir. Bu fazilatlar shifokorning kasbiy qarorlarida, bemor bilan muloqotida, klinik vaziyatlarda o'zini tutishida, jamoadagi munosabatlarda hamisha namoyon bo'ladi. Tadqiqotimizda bu sifatning to'rtta mezon asosida shakllanishi ko'rsatib berilgan:

- ma'naviy motivatsiya,
- kognitiv (etika va deontologiya bo'yicha bilimlar),
- shaxsiy fazilatlar (rahmdillik, halollik, javobgarlik),
- faoliyat mezoni (axloqiy qaror qabul qila olish qobiliyati).

Shuningdek, shifokorlik kasbining o'ziga xos pedagogik xususiyatlari ham yoritiladi. Xususan, shifokorlik – bu inson hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgani bois, shifokorning shaxsiy fazilatlarini klinik bilimlar qadar muhim ekani ta'kidlanadi. Shifokor doimo o'z bilimini yangilab borishi, murakkab vaziyatlarda mas'uliyatli qaror qabul qila olishi, bemorga mehr-oqibat bilan yondashishi, tibbiy sirga sodiq bo'lishi va jamiyat oldidagi burchini teran anglagan holda faoliyat yuritishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, shifokorlik kasbi insonparvarlik an'analari tayanadi va uning deontologik mazmunini tashkil qiluvchi etik tamoyillar – bo'lajak shifokorlar shaxsining kasbiy-ma'naviy kamolotida poydevor vazifasini bajaradi. Tadqiqotimizdagi ilmiy-amaliy yondashuvlar ushbu tamoyillarni zamonaviy tibbiy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarurligini asoslaydi.

1. Kasbiy-ma'naviy fazilatlarining falsafiy-pedagogik ildizlari

Kasbiy-ma'naviy fazilatlarining shakllanishi insonning axloqiy qarashlari, ma'naviy qadriyatlari va kasbiy burchni anglash darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u falsafiy, pedagogik va deontologik manbalarga tayangan holda rivojlanadi. Shifokor shaxsining kasbiy-ma'naviy poydevori bir qancha asosiy tushunchalarga suyanagan holda shakllanadi: axloq, madaniyat, ma'naviyat, ma'naviy motivatsiya va kasbiy burch.

2. Axloq – xulq-atvorni tartibga soluvchi ijtimoiy mexanizm

Axloq atamasi “jamiyat tomonidan e'tirof etilgan, shaxs xatti-harakatlarini tartibga soluvchi me'yorlar majmui” sifatida talqin qilinadi. Axloqning o'zagi – jamiyat va kasb oldidagi mas'uliyat, shaxsning kundalik faoliyatidagi axloqiy tanlovlardir. Axloq tashqi bahoga ochiq bo'lgan kategoriya bo'lib, jamiyatning umumiy madaniy standartlariga tayanadi.

3. Madaniyat – axloqiy me'yorlarning kundalik hayotga singishi

Madaniyat shaxsning ichki madaniy holatini emas, balki axloqiy bilimlarning amaliyotga ko'chish darajasini bildiradi. Tadqiqotimizda bu “axloqiy tafakkur madaniyati” sifatida talqin qilinib, insonning boshqalar bilan munosabatida halollik, kamtarlik, go'zal xulq, vazminlik kabi fazilatlar namoyon bo'lishi bilan bog'lanadi.

4. Ma'naviy motivatsiya – kasbiy maqsadning ichki manbai

Ma'naviy motivatsiya kasbiy-ma'naviy fazilatlarining birinchi mezoni sifatida belgilangan bo'lib, u boshqalarga yordam berish istagi, bemorga mehr, rahm-shafqat, inson qadriyatlarini ustuvor qo'yish kabi ichki ehtiyojlarga tayanadi. Bu motivatsiya shifokor faoliyatini ma'naviy jihatdan boshqaruvchi kuch hisoblanadi.



5. Gippokrat qasamyodi – shifokor ma'naviyatining tarixiy poydevori

Gippokrat qasamyodi shifokorlik etikasi va deontologiyasining eng qadimiy va universal manbasidir. Unda quyidagi tamoyillar shifokor faoliyatining ajralmas qismiga aylangan:

1. "Avvalo, zarar qilma" (primum non nocere) – tibbiy amaliyotning eng fundamental ma'naviy tamoyili.
2. "Bemor manfaatini birinchi o'ringa qo'yish" – shifokorning har qanday qarori bemor foydasiga xizmat qilishi kerak.
3. "Tibbiy sir saqlash" – shifokor va bemor o'rtasidagi ishonchning asosi.
4. "Shaxsiy manfaatni bemor manfaatidan baland qo'ymaslik" – kasbiy poklik va vijdonlilik talabi.

Tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, ushbu tamoyillar hozirgi zamon bioetikasi tomonidan ham qabul qilingan va WHO hamda WMA deklaratsiyalarining asosini tashkil qiladi.

Gippokrat modeli shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatni "zarar qilmaslik va bemor manfaatini ustuvor qo'yish" tamoyillariga asoslaydi. Bu model shifokorning ijtimoiy ishonchga egaligini, uning kasbiy qarorlari axloqiy mezonlarga qat'iy bo'ysunishini talab qiladi.

6. Paracelsus modeli – ruhiy-ma'naviy aloqaning ustuvorligi

Paracelsusning tibbiy etika haqidagi qarashlari alohida ahamiyatga ega. U shifokorning kasbiy kuchi nafaqat bilim va tajribada, balki ma'naviy-ruhiy qudratda, ya'ni bemorga bo'lgan samimiy mehr va e'tiborda deb bilgan.

Paracelsus modeli quyidagilarni ta'kidlaydi:

- shifokor bemorning nafaqat tanasiga, balki ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi;
- bemor bilan muloqot – bu ma'naviy sheriklik;
- davolanish samarasi ko'p jihatdan shifokorning mehribonligi, sabr-toqati, diqqat-e'tiboriga bog'liq;
- shifokor–bemor aloqasi – bu ikkala tomonning ruhiy energiyasi almashinuvi.

Paracelsus modeli bemor bilan ma'naviy-ruhiy aloqalarni davolash jarayonining ichki tarkibiy qismi sifatida ko'radi – bu Gippokrat modelidan farqli ravishda shaxsning individual hissiy kechinmalariga katta ahamiyat beradi.

7. Zamonaviy tibbiyotdagi deontologik tamoyillar bilan uyg'unlik

An'anaviy deontologik tamoyillar zamonaviy bioetikada quyidagi universal etik prinsiplar bilan mos keladi:

1. Shaxsiy avtonomiya (autonomy)

- Bemorning shaxsiy tanlovi, roziligi, qaror qabul qilish huquqi – Gippokrat qasamyodidagi "bemor manfaatini hurmat qilish" tamoyilining zamonaviy talqini.

2. Rozilik (informed consent)

- Bemorning qaror qabul qilish jarayonida to'liq axborotga ega bo'lishi va ixtiyoriy ravishda rozilik bildirish huquqi.

3. Benefitsiya (yaxshilik qilish)

- Shifokor qarorlari bemorning eng yaxshi manfaatini ko'zlashi.

4. Non-malefitsiya (ziyon qilmaslik)

- "Primum non nocere" – tadqiqotimizda asosiy axloqiy tamoyil sifatida alohida ko'rsatib o'tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ushbu mavzu bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishning ilmiy asoslangan yondashuvlariga tayangan holda amalga oshirildi. Asosiy ma'lumotlar shifokorlik amaliyoti, tibbiy etika va deontologiya bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro bioetika hujjatlari, shuningdek, tibbiy ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan normativ-metodik manbalar tahlili orqali olindi. Qo'shimcha ma'lumotlar oliy tibbiyot ta'limi talabalari va amaliyotchi shifokorlar bilan o'tkazilgan suhbatlar, kuzatuvlar hamda tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda yig'ildi. Olingan ma'lumotlar mazmuniy–mantiqiy tahlil, taqqoslash, kategoriyalar bo'yicha guruhlash va umumlashtirish usullari orqali qayta ishlanib, kasbiy-ma'naviy fazilatlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlab berildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Shifokor shaxsining kasbiy-ma'naviy fazilatlari tibbiy faoliyatning eng muhim axloqiy-pedagogik ko'rsatkichlari sifatida talqin qilinadi. Bu fazilatlar shifokorning bemor bilan munosabatida, klinik qarorlarida, kasbiy jamoa bilan hamkorligida va jamiyat oldidagi burchini bajarishida bevosita namoyon bo'ladi. Shuningdek, ular shifokorlik qiyofasini belgilovchi asosiy mezonlar bo'lib, tibbiy ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi.

Quyida kasbiy-ma'naviy fazilatlarning mazmuni kengroq izohlanadi.

1. Empatiya va insonparvarlik

Empatiya – bemorning ruhiy holatini, og'rig'ini, qo'rquvini, tashvishini chuqur his eta olish va unga mos ravishda samimiy yondashish qobiliyatidir.

Empatiya “shifokorning ma'naviy sezgirligi” sifatida ta'riflanadi. Bu fazilat quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

- bemorning kechinmalarini tushunish;
- mehribonlik va shafqat ko'rsatish;
- til topish va ishonch uyg'otish;
- bemorning individual ehtiyojlarini inobatga olish.

Insonparvarlik esa shifokor faoliyatining ideali bo'lib, Gippokrat an'analari “bemorga inson sifatida munosabatda bo'lish” tamoyili bilan ifodalanadi.

Javobgarlik

Javobgarlik shifokorning o'z harakati, qarorlari, davolash jarayonidagi tanlovlari va ularning oqibatlari uchun mas'uliyatni chuqur anglashidir. Tadqiqotimizda qayd etilishicha, bu fazilat shifokorning:

- klinik qarorlar yuzasidan vijdoniy mas'uliyati;
- bemor hayoti va sog'lig'i oldidagi burchi;
- o'z kasbiy chegaralarini bilish va ularni e'tirof etish;
- xatolarni tan olish va ularni tuzatishga tayyorlik

kabi jihatlarda namoyon bo'ladi.

2. Halollik

Halollik – shifokorning kasbiy faoliyatida rostgo'ylik, vijdonlilik, manipulyatsiyalardan yiroqlik, bemor va jamiyat oldidagi pok niyatni saqlashidir. Tadqiqotimizda halollik “shifokor axloqiy qiyofasining markaziy fazilati” sifatida ko'rsatiladi. U quyidagi shakllarda ifodalanadi:

- moliyaviy yoki shaxsiy manfaatlarni bemor manfaatidan ustun qo'ymaslik;
- noto'g'ri ma'lumot bermaslik;
- tashxis yoki davolash jarayonida ataylab zarar yetkazmaslik;
- kasbiy imkoniyatlarni suiiste'mol qilmaslik.

Bu fazilat shifokorga bo'lgan jamoat ishonchining garovidir.

3. Ijtimoiy mas'uliyat

Shifokorning ijtimoiy mas'uliyati – uning jamiyat oldidagi axloqiy burchidir. Tadqiqotimizda bu fazilat quyidagicha yoritiladi:

- jamiyat salomatligini saqlashga hissa qo'shish;
- kasalliklarning oldini olish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;
- tibbiy yordamga teng kirishni ta'minlashga ko'maklashish;
- pandemiya, favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar davrida fidoiylik ko'rsatish.

Ijtimoiy mas'uliyat shifokor faoliyatining faqat kasb emas, ijtimoiy xizmat ekani bilan bog'liq.

4. Vazminlik va o'zini tuta bilish

Vazminlik – murakkab klinik vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlash, bosim ostida to'g'ri tafakkur va professional qaror qabul qila olish qobiliyatidir.

Bu fazilat quyidagi holatlarda alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi:

- o'lim xavfi yuqori bo'lgan bemor bilan ishlash;
- qarindoshlarning hissiy bosimi yoki shikoyatlari;
- mojaroli klinik vaziyatlar;
- qiyin diagnostik holatlar;



- stress ostida tezkor qaror qabul qilish zarurati.
Shifokorning vazminligi bemor va uning oilasi uchun psixologik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

5. Doimiy o'qishga tayyorlik

Shifokorlik kasbi fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda doimiy ravishda o'z ustida ishlashni talab qiladi. Bu fazilat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yangi ilmiy yutuqlarni o'rganish;
- zamonaviy davolash protokollarini egallash;
- malaka oshirish va qayta tayyorlashda muntazam ishtirok etish;
- o'zining kasbiy cheklovlarini tan olish va ularni bartaraf etishga intilish.

Bu sifat "shifokorning intellektual va kasbiy pokligining zarur sharti" sifatida talqin etiladi.

6. Kasbiy-intellektual poklik

Bu fazilat shifokorning kasbiy qarorlarni halollik bilan qabul qilishi, diagnostika va davolash jarayonida ilmiy asoslangan, to'g'ri va xolisona yondashuvni tanlashini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shifokor shaxsini shakllantirish jarayonida kasbiy-ma'naviy fazilatlarni rivojlantirish tibbiy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqotimizda asoslab berilganidek, shifokorning kasbiy-ma'naviy qiyofasi uning bilimlari va amaliy malakalaridan kam bo'lmagan darajada kasbiy muvaffaqiyatni belgilovchi omildir. Kasbiy-ma'naviy fazilatlarning tizimli shakllanishi shaxsning axloqiy qarashlari, tibbiy etika me'yorlariga amal qilishi, shifokorlik burchiga sodiqligi va bemor manfaatini ustuvor qo'yishi orqali namoyon bo'ladi.

Kasbiy-ma'naviy fazilatlarning asosiy mezonlari – ma'naviy motivatsiya, kognitiv tayyorgarlik, shaxsiy fazilatlar va axloqiy faoliyat – shifokorlik faoliyatining ichki tuzilishini belgilaydi. Tibbiy ta'lim jarayonida ushbu mezonlar ketma-ketlikda shakllanib boradi: avval kasbga ma'naviy munosabat hosil bo'ladi, so'ng etika-deontologiya bo'yicha bilimlar chuqurlashadi, shaxsiy insonparvarlik fazilatlarini mustahkamlanadi va yakunda axloqiy qaror qabul qilish malakalari rivojlanadi.

Empatiya, halollik, javobgarlik, ijtimoiy burchni his qilish, vazminlik, o'z ustida ishlashga tayyorlik, kasbiy-intellektual poklik kabi sifatlar shifokorning bemor bilan munosabatida, klinik qarorlarida, jamiyat oldidagi mas'uliyatida va kasbiy hamjamiyat bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotimizda ta'kidlanganidek, ushbu fazilatlarning barchasi – shifokor shaxsining madaniy qiyofasi va professional etukligining ko'zgusidir.

Umuman olganda, tibbiy ta'lim jarayonida kasbiy-ma'naviy fazilatlarni rivojlantirish – shifokorning kasbiy yuksalishida hal qiluvchi omildir. Deontologik tamoyillarga amal qilgan, empatiya va insonparvarlik ruhida tarbiyalangan, halollik, javobgarlik va axloqiy mustaqillikka ega shifokor har qanday klinik vaziyatda bemorning hayoti va sog'lig'ini birinchi o'ringa qo'ya oladi. Bu esa shifokorning professional muvaffaqiyati, jamiyatdagi obro'si va bemor ishonchining eng muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedova, N. D. (2020). Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-ma'naviy fazilatlarni tarbiyalash tizimini rivojlantirish. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi, pedagogik ta'limotlar tarixi (pedagogika fanlari). Dissertatsiya mavzusi ro'yxatga olingan raqam: B2019.4.PhD/Ped1149.
2. Beauchamp, T. L., & Childress, J. F. (2019). Principles of biomedical ethics (8th ed.). Oxford University Press.
3. World Medical Association. (1948). Declaration of Geneva.
4. World Medical Association. (2013). WMA International Code of Medical Ethics. WMA.
5. Gillon, R. (1994). Medical ethics: four principles plus attention to scope. *BMJ*, 309(6948), 184–188.
6. Pellegrino, E. D., & Thomasma, D. C. (1993). The virtues in medical practice. Oxford University Press.
7. Jonsen, A. R., Siegler, M., & Winslade, W. J. (2015). Clinical ethics: A practical approach to ethical decisions in clinical medicine (8th ed.). McGraw-Hill.
8. Veatch, R. M., Haddad, A., & English, D. C. (2010). Case studies in biomedical ethics. Oxford University Press.
9. Cruess, R. L., Cruess, S. R., & Steinert, Y. (Eds.). (2016). Teaching medical professionalism: Supporting the development of a professional identity (2nd ed.). Cambridge University Press.
10. Swick, H. M. (2000). Toward a normative definition of medical professionalism. *Academic Medicine*, 75(6), 612–616.
11. Wynia, M. K., Papadakis, M. A., Sullivan, W. M., & Hafferty, F. W. (1999). More than a list of values and desired behaviors. *Academic Medicine*, 74(6), 673–678.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.